

**OBRAZ TUSHUNCHASINING BADIY TALQINI
("HAJ DAFTARI" MISOLIDA)**

Rajabov Eliyor Xoliyorovich

Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

elyorrajabov67@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15516781>

Annotation:

This article explores the literary interpretation of the concept of the "image" (obraz) in artistic expression, with a particular focus on the poetic works of Abdulla Oripov. Specifically, it analyzes the series of poems in The Pilgrimage Notebook (Haj daftari), examining the religious, philosophical, and social dimensions of the imagery employed. The study highlights how the poet conveys spiritual struggle, repentance, divine guidance, and human compassion through rich symbolic representations. Key images such as the Kaaba, the Prophet Muhammad (peace be upon him), and Satan are interpreted in terms of their spiritual and aesthetic functions. The analysis demonstrates how these images serve broader ideological and artistic purposes, offering deeper insight into the thematic and emotional layers of contemporary Uzbek poetry.

Keywords: image, poetic expression, artistic interpretation, symbolic meaning, spirituality, ideology, Uzbek literature, The Pilgrimage Notebook, literary analysis.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada "obraz" tushunchasining badiiy adabiyotdagi keng ma'nodagi talqini tahlil qilinadi. Xususan, Abdulla Oripov ijodiga mansub "Haj daftari" turkumidagi she'rlar asosida obrazlarning diniy, falsafiy va ijtimoiy yuklamalari ochib beriladi. Shoir lirik qahramon kechinmalari, xalq dardiga hamdardlik, insoniy kamolot, tavba, najot, hidoyat kabi tushunchalarni chuqur poetik obrazlar vositasida ifodalaydi. Tadqiqotda Ka'batulloh, Muhammad (s.a.v.) va Shayton obrazlari tahlil etilib, ularning ma'naviy-estetik funksiyalari yoritiladi. Maqola adabiy tahlil orqali obraz tushunchasining g'oyaviy-estetik imkoniyatlarini ochib beradi hamda zamonaviy o'zbek she'riyati misolida bu tushunchaning badiiy mohiyatini anglashga xizmat qiladi

Kalit so'zlar: obraz, badiiy ifoda, san'atkorona talqin, ramziy ma'no, ma'naviyat, g'oya, o'zbek adabiyoti, "Ziyorat daftaridan", adabiy tahlil.

Obraz - timsol tushunchasining keng va tor ma'nolari mavjud. Keng ma'nodagi timsol tushunchasi ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatga, tor ma'noda badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi. Biz bu o'rinda timsol tushunchasining keng ma'nosi haqida fikr



yuritimiz. Abdulla Oripov o‘zining “Haj daftari” turkum she’rlariga timsol qilib olgan obrazlar judayam rang-barang ekanligi bilan ajralib turadi. Quyida shoir badiiy obrazlarni lirik tasvirlagan holatlarini tekshirib, tahlil qilib boramiz. “Haj daftari” turkumidagi birinchi she’r Ka’batullohga bag‘ishlangan. Ammo, unda Ka’batulloh madhi emas, balki, butunlay boshqa bir dardli haqiqat yoritilgandir. U shunday satrlar bilan boshlanadi:

Hanuz biri ikki bo‘lmagan eldan,
Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh.
Bag‘ri xun, tolei kulmagan eldan,
Keldim madad bergil, yo Ka’batulloh.

Ko‘rinib turibdiki, shoir bunda yurt va millat dardini birinchi o‘ringa qo‘yayotir. Ya’ni bundagi obrazda vatanparvarlik hissi yetakchilik qiladi. Bu narsa “Hanuz biri ikki bo‘lmagan”, “Bag‘ri xun, tolei kulmagan el” tarzidagi ifodalardan oq anglashiladi. Lirik qahramon Ka’batullohda turib bir zamonlar zehni va fikrati dunyoni yoritgan el va bandi bo‘lgan ulug‘ yurtning yaqin o‘tmishdagi qismatini xayoldan o‘tkazadi va deydi:

Qay zamon odamlar bad fe‘lin sezdim,
Vafoli do‘st izlab dunyoni kezdim.
Topmadim, topmadim, baridan bezdim,
Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh.

Biri ikki bo‘lmagan bag‘ri xun, tolei kulmagan el - ulusning bir vakili bo‘lib yashash ham oson kechadigan ish emas. Chunki, bunday yurtda va muhitda ko‘pdan-ko‘p ma’naviy-axloqiy muammolar tug‘ilishi tabiiydir. Shoir o‘zi-ning yolg‘izligi va yolg‘izlanishi haqida so‘zlarkan, ayni paytda har bir kishi -ning fikr darajasi va saviyasiga qarab ham qullik va tobelik sharoitidagi inson qismati, xususan, ijodkor tolei xususida o‘ylashga ham go‘yo da’vat qiladi. To‘g‘ri, hamma yetuk shoirlar ham odamzodning yomon fe‘l atvoridan, vafoli do‘st topa olmaganligidan nolib o‘tishgan. Aks holda Alisher Navoiy “Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo, mehribone topmadim” deb, Bobur esa “Jonimdin o‘zga joni vafodor topmadim” deb yozmagan bo‘lar edi. Lekin, Abdulla Oripovning Ka’batullohga borib iltijo qilishida juda muhim bir ma’no yashiringan. Bu ma’no esa, dindan ajratilgan xalq ahvoliga kuyunish va uning hidoyat yo‘liga yuz burishidan keyingi hayotiga ishonchdir:

Shukrona ayturman o‘zingga, yo Rab,
Yuz burdik hidoyat yo‘liga qarab.
Haq degan yurtimning baxtini so‘rab
Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh.



“Hikmat sadolari” tub mohiyati bilan Hazrati payg‘ambarning aql, tafakkur va ko‘ngil sadolaridir. Shuning uchun ularning deyarli har birida “Rasululloh dedi, Rasululloh demish”, “Rasul amr qildi”, “Rasululloh demishku ul dam” singari ta’kidli iboralardan foydalanilgan. Shu bilan birgalikda turkumdagi mavzularning asosida ham janob payg‘ambarimiz turadi. Mavzularning asosiysi sifatida “Haj daftarida” payg‘ambar obrazi haqida ham so‘z yuritsak, tahlil qilsak maqsadimiz bir qadar oydinlashadi. Ma’lumki, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning sifatleri, xulqlari, fazilatleri Oisha onamiz, sahobalar tomonidan keltirilgan hadislarda, tarixiy kitoblarda yaqqol aks etgan.

Diniy va tasavvufiy asarlarda shaytonning ishlari, makr va hiylalari to‘g‘risida juda ko‘p bahs yuritilgan. Shu ma’noda Shaytonni adabiyotdagi asosiy timsollardan biri deyish mumkin. Shaytonga xos yomonlik va hiyla nayranglar inson tabiati va faoliyati orqali yuzaga chiqadi. Shuning uchun shayton bilan kurashish insondagi yomonlik, yovuzlik, johillik, hiylakorlik, makkorlikka qarshi kurashmoq ma’nosi bilan deyarli teng turadi. Haj safari – shaytonni la’natlash va uni tosh bo‘ron etish safari hamdir. Shuning uchun ham Abdulla Oripov Shaytonga bag‘ishlangan she’rida:

Minoda Shaytonni qildik toshbo‘ron,
La’natga ko‘mildi badbaxt u lain.
Dedik, shuncha yukning ostidan Shayton
Ming yillar chiqolmay yotmog‘i tayin.

Haqiqatda ham “Shuncha yukning ostida Shayton ming yillar” davomida chiqolmay yotishi mumkinmi? She’r so‘ngida shoir ushbu savolga oddiy kitobxon kutmagan bir javobni topadi:

Shodumon yo‘l oldik Vatanga qarab,
Shayton qoldi, deya chuqurda – chohda.
Manzilga qaytgandik Shayton voajab,
Bizni kutib oldi tayyoragohda.

Demak, shaytonning hunari bu - insonning hunari. Shuning uchun ham inson istasa bir-biriga “Sallani paytava qilib o‘ratgay”.

Agar sidqidildan ko‘rsatsa nayrang,
Nodonna shoh qilib yurtni so‘ratgay.

Xullas, har bir kishi o‘zidagi Shaytoniy xususiyat va sifatlarni bilmaguncha Shayton qiyofasini aniq tasavvur qila olmaydi. “Shayton” she’rida ilgari surilgan bosh maqsad ham ana shu edi. “Haj daftari”da o‘rtaga tashlangan fikr va tuyg‘ularning bir qanchasi Abdulla Oripovning “Hikmat sadolari” turkumida ham davom ettirilib, yanada rivojlantirilgan. Buni Ona, Shayton va Ka’baga



bag'ishlangan she'rlardan ham bilish mumkin. "Shayton" deb nomlangan ikkinchi she'rda shoir go'yo tayyoragohda duch kelgan "Shayton" yolg'iz emasligini isbotlab:

U goho xojadur, gohida dastyor,
U goho paridur, sochlari sumbul.
Goho do'stman deb so'z boshlar sekin,
Lutfi g'oyat shirin totli zaboni.

-deydi. Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarda shaytondan qutulishning bir qancha choralari ko'rsatib berilgan. Muhammad alayhissalom bir hadislarida "Men tushlaringizda ko'rsalaringiz, shaytonni tush ko'rmaysizlar. Chunki shayton hech qachon mening qiyofamga kira olmas"¹degan ekanlar. Abdulla Oripov she'r xotimasida, aynan, shu hadisni asos qilib olgan:

Tushingda Rasulni ko'rdingmi - quvon.
Demak, ibodating yerda qolmaydi.
Rasululloh demish: - Shayton hech qachon,
Mening qiyofamga kira olmaydi.

Yana muhim obrazlardan biri bu **Ona** siymosidir. Muqaddas kitobimiz Qur'oni karimda hamda hadislarda ham bu zotga ehtirom ko'rsatish haqida juda ko'plab so'z boradi. Ona ayol kabi tushunchalar naqadar qadrli biz uchun. Olloh taolo nozil qilgan kitob Qur'oni karimning Surai "Niso" "Nur" "Taloq" kabi suralar boshdan oyoq ayollarga oid masalalarni qamrab olgani bizga ma'lum. Bahz ibn Hakim (r.a.) otasi va bobosidan rivoyat qildi, bobosi aytdi: "Rasulullohdan: "Ey, Rasulalloh, men yaxshiligimni kimga qilsam bo'ladi?" – deb so'radim. "Onangga", dedilar. Men shu savolimni uch marotaba qaytarsam ham, Rasululloh: "Onangga", deyaverdilar. To'rtinchi marotaba so'raganimda: "Otangga va yaqin bo'lgan qarindoshlaringga", dedilar.² Payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallamning ko'rsatmalari asosida yozilgan she'r badiiy jihatdan ham g'oyatda ta'sirli:

Kimdir savol berdi: – Aytgil Muhammad,
Yolg'iz sen Rasulsan butkul olamga.
Kimga ko'p yaxshilik aylay, o'zing ayt,
Ota onamgami yoxud bolamga?

She'r hadisning talqini ekanligi uchun ham shoir juda ehtiyotkorlik bilan so'z tanlaydi. Hadis va diniy bilimdan uzoqroq odam she'rni o'qiganida onaga





yaxshilik qilish majburiy ekan deb islom dini va Rasulullohdan og‘rinmasligi uchun asosiy mezonni she’rda ham aniq belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. 3-tom. T. Adabiyot va san’at, 2001. 382-b
2. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4-tom. T. Adabiyot va san’at, 2001.381- b
3. Orif A. Haj daftari. T. Murod firmasi . Mirzo Akbar nashr bo‘limi, 1992.
4. Ernazarova G.H. XX asr o‘zbek poeziyasida milliy tafakkur va uning badiiy talqini (Cho‘lpon, G‘.G‘ulom A.Oripov she‘riyati misolida). NDA, Toshkent, 2001, 30-bet.
5. Egamqulova N.B. “Abdulla Oripov she‘riyatining lingvopoetik tahlili” nomli dissertatsiyasi

